

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

QARSHI MUIHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

No 158  
"24" 08 2022 yil



AMALIY EKOLOGIYA  
FANI  
SILLABUSI


Bilim sohasi: 700 000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari  
Ta'lim sohasi: 710 000-Muhandislik ishi  
Ta'lim yo'nalishi: 60710400-Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (sanoatda)

Qarshi-2022 yil

<b>Tuzuvchilar:</b>	O.Sh.Muradov- "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi professori, t.f.d. J.G. Mamanov- Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi st. o'qituvchisi
<b>Taqrizchilar:</b>	T. Tilloev- Qarshi davlat universiteti, "Botanika va ekologiya" kafedrasi dotsenti, b.f.n. U. Panjiyev- Sanoat texnologiyasi fakulteti dekani k.t.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi yig'ilishida (bayonnomma № 1, 26.08.2022 yil), "Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayonnomma № 1, 27.08.2022 yil) va institut Uslubiy Kengashida (bayonnomma № 1, 29.08.2022 yil) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanshga tavsiya qilingan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet uslubiy kengashi raisi: 

Kafedra mudiri:

Sh.R. Turdiyev

M.G.Osirov.

R.A. Eshonqulov

### "Amaliy ekologiya" fani sillabusi

Fan (modul) kodi AEK2303	O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS krediti 2
Fan (modul) turi Umumkasbiy fanlar	Ta'lim tili O'zbek	Haftalik dars soati 2	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
Amaliy ekologiya	30	30	60

### O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Ekologiya va mehnat muhofazasi		
O'qituvchilar	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
Ma'ruzachi	Muradov Shuxrat Odilovich	+998 90 341 06 53	m.oikos@mail.ru
Amaliy mashg'ulot	Mamanov Jaloliddin G'anisher o'g'li	+998 97 200 60 90	jalol.oikos@mail.ru

### I.Fanning mazmuni

Amaliy ekologyaning asosiy muammosi biologik xilma-xillik bo'lib hisoblanadi. Amaliy ekologyaning asosiy maqsadi-bioxilma-xillikni asrashdir (yoki hech bo'limganda tanazzulga yuz tutishini kamaytirishi). Huddi shu maqsad tabiatni muhofaza qilish, qo'riqxonalar va genetik banklar tashkil etish, hayvonlarning yangi turlarini honakilashtirish va boshqa ko'plab omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Faqat bioxilma-xillik asosiy maqsad emas, bioxilma-xillik ekotizimlarning barqaror mavjudligi va biosfera muvozanatining zaruriy shartidir. Murakkab tizimlar ichida xilma-xillik oshib bormoqda. Shundan kelib chiqib muhit sharoitiga adaptatsiyalashmoqda, barqarorlashmoqda ya'ni barqarorlik va xilma-xillik orasida juda yaqin aloqadorlik mavjud.

Biologiya va ekologiyada bu ekotizimlar va organizmlarning murakkablashish qonunida namoyon bo'lmoqda. Nazarda utilayotgan qonuniyatning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati mavjud. Rio-de Janevro (1992), Yoxannesburgda (2002) va Nyu-York (2015) o'tkazilgan BMTning xalqaro anjumanlari qabul qilgan qarorlarda barqaror rivojanishning asosiy printsiplari o'z aksini icongan. Jamiyatda va tabiatda xilma-xillikni, ayniqsa bioxilma-xillikni, ma'naviy, madaniy xilma-xillik va boshqa qadriyatlarini asrash inson yashab qolishi uchun zaruriy shartlardir.

O'zbekistonda bioxilma-xillik va barqaror rivojanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni analiga oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori (20.10.2018y.), "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhozafa qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (PF-5863-som, 30.10.2019 y.) kabi huquqiy hujjalarning ayrim bandlarini bajarishga qaratilgan ushu dasturda "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" yo'nalishi bo'yicha ta'lif olayotgan talabalarga tushuntirish va to'liq bioxilma-xillik va barqarorlik muammolarini yoritilgan.

## II. Fanning maqsad va vazifalari

Ushbu dastur davlat ta'lif standarti "5630100-Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" yo'nalishi uchun tuzilgan.

Afsuski hozircha bioxilma-xillik va barqarorlik muammosi yetarli darajada yoritilgan darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlari yetishmaydi. Amerika ekologi Yu.Odumning "Ekologiya" (M.: izd-vo "Mir" 1986) nomli 2 tomlik kitobi ozgina bo'sada uning o'mini to'ldiradi. Ekologiya bo'yicha texnika olyi o'quv yurtlari uchun Rossiya da chiqarilgan darsliklar ham bu muommolar haqida qisman ma'lumot beradi (L.I.Svetkova I dr. Ekologiya., V.I.Korobkin, L.V.Peredelskiy. Ekologiya, 2001). Bu masalaga ancha yaqinlashgan prof.Ergashev va b. tomonidan tayyorlangan (Toshkent, 2016).

Ushbu dastur zamонавији fan yutuqlaridan foydalanib nafaqat barqaror rivojlanish va bioxilma-xillik muammosini har tomonlama o'rganish maqsadida, balki ekologiyaning boshqa bo'limlari va unga yaqin fanlar bilan aloqador holatda o'rganishni nazarda tutib tuzilgan.

Hozirgi kunda yerdagи hayot va ekotizimlar barqarorligini xilma-xillik boshqarishi sir emas. Tabiatda xilma-xillik bo'lganda edi biotik va abiotik tizimlar – to'qimalar, organizmlar kabi murakkab tizimlar paydo bo'lmas edi. Yerdagи tabiiy sharoitlarni xilma-xilligi, uni "hayot beshigi"ga aylantirib, ongli darajasiga yetkazdi. Bu kurs huddi shu muammolarni hal etishga qaratilgan. Kursning asosiy bo'limlariga quydagilar kiradi:

- xilma-xillik qonuni;
- biologik xilma-xillik: genetik, turlar, ekotizimlar;
- inson va bioxilma-xillik;
- ekotizimlarni optimallashtirish va bioxilma-xillikni saqlash;
- barqarorlik va barqaror rivojlanish.

"Ekologiya" va "Iqtisod" tushunchalari bita ildizdan tarqalganiga qaramasdan "uy-joy, muhit" haqidagi bu ikki fonda hozirgacha qarama qarshilik mavjud. Biroq ko'pgina rivojlangan mamlakatlardagi global miyosdagi ekologik muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilmasdan turib ushu jarayonni anglatish mumkin bo'lmaydi. Ko'p mamlakatlarda sinab ko'riganidek, ekologik va iqtisodiy qiziqish atrof-muhit sifatini me'yorashtirishga bog'liq va iqtisodiy qiziqish butun jahon forumlari XXI-asr kun tartibi etib qabul qilingan (Rio-de Janeyro, Yoxannesburg, Nyu York). Hukumatlarni iqtisodiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy muhit va tabiat muhofazasiga bog'liq barqaror rivojlanish qonunlarini ishlab chiqishga chaqiradi. Narxlar, davlat mablag'i va iqtisodiy siyosat atrof-muhit muhofazasini ta'minlashi lozim.

## III.Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar quyiladi. *Talaba:*

- Amaliy ekologiya fanining maqsadi, vazifalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Bioxilma-xillik va uning Barqaror rivojlanish haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Bioxilma-xillikka ta'sir qiluvchi omillar va jarayonlarni bilishi;
- Ekotizimlarni optimallashtirish va bioxilma-xillikni saqlash muammolarini bilish;
- Ekotizimlar barqarorligi, barqarorlikka bo'lgan to'sqinliklarni bilishi;
- Barqaror rivojlanishga o'tish konsepsiysi bilan tanishib chiqishi kerak.

## IV.Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uziyiligi

Mazkur fan dasturi o'quv rejasiga ko'ra qator boshqa fanlar bilan uziy bog'liq bo'lib, bunga asosan, ekologiya, tuproqshunoslik, fizika, kimyo, matematika va boshqa fanlar kiradi.

## V.Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Ishlab chiqarish ob'ektlari hududlarida tabiiy bioxilma-xillik darajasini monitoring qilish, hududda barqaror rivojlanish chora tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik hamda atrof muhit muhofazasi fuqarolar salomatligini ta'minlash, iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini rivojlanishning muhim omilidir. Ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik hamda atrof muhit muhofazasini ta'minlash bilan uziy bog'liqdir.

## Fanni o'qitishda zamонавији axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan, jumladan muhokama-munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruxyatini tuzish, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lam), baliq skeleti, ajurli arra, FSMU, bumerang, skarabey, kaskad, Veyer, Pinbord, "T-sxema", Delfi Blits-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, ma'ruza-anjuman texnikasi, BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalaniladi.

Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarda yangi chop etilib, "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanan ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan bo'yicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlari esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdag'i elektron modellaridan, virtual laboratoriyalardan foydalaniлади.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan bo'yicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlari esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdag'i elektron modellaridan, virtual laboratoriyalardan foydalaniлади.

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga.* Bu ta'limga o'z mohiyatiga ko'ra ta'limga jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limga loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'limga oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

*Tizimli yondoshuv.* Ta'limga texnologiyasi tizimning barcha belgilarni o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

*Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.* Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'limga oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyatni va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limga ifodalaydi.

*Dialogik yondashuv.* Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

*Hamkorlikdagi ta'limga tashkil etish.* Demokratik, tenglik, ta'limga beruvchi va ta'limga oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

*Muammoli ta'limga.* Ta'limga mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'limga oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlanadi.

*Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.*

*O'qitishning usullari va texnikasi.* Ma'ruba (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'limga, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlari.

*O'qitishni tashkil etish shakllari.* dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rGANISHGA asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

*O'qitish vositalari:* o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruba) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyaları.

*Kommunikatsiya usullari:* tinglovchilar bilan operativ teskari asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

*Teskari aloqa usullari va vositalari:* kuzatish, blitz-so'rov, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahsilli asosida o'qitish diagnostikasi.

*Boshqarish usullari va vositalari:* o'quv mashg'uloti bosqichlarini beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalasi qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi ha nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishl nazorati.

*Monitoring va baholash:* o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomid o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topsh yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

#### IV. Fan tarkibi (ma'ruba mashg'ulotlari)

T/r	Mavzular nomi 4-semestr	Sodda
1	Fanga kirish: ob'ekti, maqsadi va fazifalari. Amaliy ekologiya faniga kirish. Fanning boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.	2
2	Xilma-xillik qonunlari. Xilma-xillik va moddiy dunyo xususiyatlari. Xilma-xillik va barqarorlik. Yaxlit holdagi ekologik xilma-xillik qonuni.	2
3	Bioxilma-xillik: genetik, ekotizimli va turlar xilma-xilligi. Biologo-ekologik xilma-xillik darajalari. Genetik xilma-xillik. Turlar xilma-xilligi. Biogeosenoz-biosfera (ekotizimli) xilma-xillik.	2
4	Inson va bioxilma-xillik. Bioxilma-xillikga insonning ta'siri. Xilma-xillikni kamaytiruvchi antropogen omillar.	2
5	Ekotizimlarni optimallashtirish va bioxilma-xillikni saqlash. Ekotizim va xilma-xillikni optimallashtirish. Bioxilma-xillikni saqlash muammolari.	2
6	Barqarorlik va barqaror rivojlanish Ekosistemalar barqarorligi. To'sqinliklar. Ekologik barqarorlik va bioxilma-xillik. Barqaror rivojlanishga o'tish konsepsiysi. Barqaror rivojlanish va global ekologik bashorat. Barqarorlik, xilma-xillik, iqtisod.	2

7	O'zbekistonning bioxilma-xilligi va barqaror rivojlaniш milliy strategiyasi. O'zbekiston va umuman jahon uchun bioxilma-strategiyasi. O'zbekiston va bioxilma-xillik haqida xillikning muhimliги. O'zbekiston va bioxilma-xillik haqida Konvensiya. Biologik xilma-xillik bo'yicha milliy strategiya va xarakat rejasи. Bioxilma-xillikni saqlash Strategiyasi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan boshqa jarayonlar va tadbirlar o'rtaсидagi munosabat.	2
8	O'zbekistonning bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejasи. Biologik xilma-xillik bo'yicha milliy strategiya va xarakat rejasи. Bioxilma-xillikni saqlash Strategiyasi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan boshqa jarayonlar va tadbirlar o'rtaсидagi munosabat.	2
<b>JAMI</b>		<b>16</b>

Ma'ruba mashg'ulotlari multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tildi.

#### Amaliy mashg'ulot

T/r	Mavzular nomi	Soat
<b>4-semestr</b>		
1	"Ekologik monitoring va tabiiy muhitni me'yorashtirish" mavzusida amaliy ishning mazmuni, ahamiyati va shakli	2
2	1-topshiriq. Asosiy tushunchalar	2
3	2-topshiriq. Ekologik monitoring tizimi;	2
4	3-topshiriq. Sanitar gigiyenik me'yorashtirish	2
5	4-topshiriq. Ekologik me'yorashtirish asoslari	2
6	Ekotizimlarning antropogen ta'sirlari	2
7	Suv havzalarining evtrofifikatsiyasi	2
<b>JAMI</b>		<b>14</b>

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.

#### Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

**Oraliq baholash (OB)** - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**Yakuniy baxolash (YAB)** - semestr yakunida talabaning muayyan fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U'asosan

tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakkarda o'tkaziladi.

Talabaning fan buyicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsija etiladi:

#### 5 (a'llo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;  
ijodiy fikrlay olish;  
mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo'lish.

#### 4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo'lish.

#### 3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

#### 2 (qoniqarsiz) baho:

dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'imaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.